



## ANALYSIS AND CONSTRUCTION TECHNOLOGY OF "SLIP" CLOTHES, RIBBONS FOR BABIES

Rakhimova Kamola Gayratovna  
Mustanovaf Zilola Abdusamat kizi

Termiz State University

raximovakamola96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13898578>

### ARTICLE INFO

Received: 02<sup>nd</sup> October 2024

Accepted: 06<sup>th</sup> October 2024

Online: 07<sup>th</sup> October 2024

### KEYWORDS

Babies, clothes, cloth, children, raspashonka, sleep, dot

### ABSTRACT

Three articles examine the requirements for clothing (suitable for day and night - overalls, raspashonka, socks-trousers (polzunka), cap - cap, etc.). The table of classes of children's clothes, types of "Sleep" clothes, raspashonkas and the technology of their making are explained.

## АНАЛИЗ И ТЕХНОЛОГИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА «СЛИПНОЙ» ОДЕЖДЫ, ЛЕНТЫ ДЛЯ ДЕТЕЙ

Мустанова дочь Зилолы Абдусамата

Рахимова Камола Гайратовна

Термезский государственный университет

raximovakamola96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13898578>

### ARTICLE INFO

Received: 02<sup>nd</sup> October 2024

Accepted: 06<sup>th</sup> October 2024

Online: 07<sup>th</sup> October 2024

### KEYWORDS

Младенцы, одежда, ткань, дети, распашонка, сон, точка.

### ABSTRACT

В трех статьях изучаются требования к одежде (пригодной для дня и ночи – комбинезон, распашонка, носки-брюки (ползунка), кепка – фуражка и т. д.). Объяснена таблица классов детской одежды, виды одежды «Слип», распашонки и технология их изготовления.

## CHAQALOQLAR UCHUN "SLIP" KIYIMLAR, RASPASHONKALAR TAHLILI VA KONSTRUKSIYASINI QURISH TEXNALOGIYASI

Mustanova Zilola Abdusamat qizi

Raximova Kamola G'ayratovna

Termiz davlart universiteti

raximovakamola96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13898578>

### ARTICLE INFO

Received: 02<sup>nd</sup> October 2024

Accepted: 06<sup>th</sup> October 2024

Online: 07<sup>th</sup> October 2024

### KEYWORDS

Ushbu maqolada chaqaloqlar kiyimi (kunduzi va kechasi uchun moslashtirilgan kiyim – kombinizon, raspashonka, paypoq-ishton (polzunka) qalpoqcha - chepchik va

*Chaqaloqlar, kiyim, mato, bolalar, raspashonka, sleep, nuqta.*

*boshqalar) lariga qo'yiladigan talablar o'rganilgan. Bolalar kiyimlarini sinflanishi jadvali, "Sleep" kiyimlarining turlari, raspashonkalar haqida va ularni konstruksiyasini qurish texnologiyalari yoritib berilgan.*

Chaqaloqlar kiyimi (kunduzi va kechasi kiyaladigan kiyimga - raspashonka, paypoq-ishton (polzunka) qalpoqcha - chepchik va boshqalar) yengil, qulay, havoni yaxshi o'tkazadigan, issiq tutadigan, gigroskoplighi yuqori bo'lishi kerak. Chaqaloqlar kiyimi erkin nafas olishiga, tana harakatini cheklamasligi qonning aylanishiga xalaqit bermasligi shart. Chaqaloqlar kiyimlariga imkon qadar kamroq chokli qilib tikish kerak. Kichkintoyning shkafiga, tagliklar va yahtaklarga qo'shimcha ravishda, har doim raspashonkalar bo'ladi. Yahtagchalarini yoki raspashonkalarini oldi qismi, yoki orqasi qismi ochiq bo'ladi. Bazi raspashonkalarga kichkina knopka tugamalari yoki uning old bo'laklari bir-biri bilan tasma yoki lentalar bilan bog'lanadi. Chaqaloq kiyimlarining yana bir ajralmas qismi bu qo'lqoplardir, yoki raspashonkalarining yenglari tikib qo'yilgan bo'ladi. Chaqaloqlar uchun tabiiy toladan to'qilgan matolardan kiyim kiyish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirda chaqaloqlar uchun ham zamonaviy qulay kiyimlarni yaratish borasida ko'plab dizaynerlar bosh qotirib kelishgan. Qarabsizki chaqaloqlarni uxlash kiyimlarini kash etdilar. Zamonaviy dizaynerlar bu kiyim turini nomini "slip" dep atashdi, dizaynerlarining qulay ixtirosi - yangi tug'ilgan chaqaloqlarning uxqu kiyimi nomibilan mashhur bo'ldi. Ular odatda kundalik kiyim sifatida ham foydalaniladi [6].



### **1-rasm. Chaqaloqlar "slip" nomli kiyim to'plami**

Ingliz tiliga tarjima qilingan ushbu nom bir vaqtning o'zida ikkita ma'noga ega:

- birinchisi, "uxlash";
- ikkinchisi - "qulaylik".

Sleep chaqaloqning uyqusida harakatlanishiga to'sqinlik qilmaydigan. Ushbu kiyim nafaqat uxlaganda, balki kundalik hayotda kiyganda ham juda qulay. Chunki bola harakatlanda

o'rmalaganda, qorni bilan yotganida yoki o'tirganida beli ochilib qolmaydi, kiyimlari yig'ilib harakatga noqulaylik tug'dirmaydi.

Sleep - bu mayka va shortni birlashmasi noyob tandemidir dep ta'rif berilgan, har ikki kiyimning birlashmasi ko'p afzalliklarni beradi:

- chaqaloqning orqa qismini himoya qiladi;
- bolaning harakatchanligi halal belmaydi va qatlamlar to'planmaydi;
- chaqaloq qorinchasi kiyimdan chiqib qolmaydi;
- chaqaloq tagligini almashtirishda vaqtni tejaydi, chunki taglik alishtirish qulay bo'lishi uchun past qismi (oyoqlari orasi) tugmachalar, knopkalar ishlatilgan;
- estetik jihatdan tashqi ko'rinishi chiroyli va shu bilan bir qatorda juda arzon narxga ega;
- mavsumga qarab loyihalanadi, masalan: yoz mavsumi uchun futbolka va pantiesning kombinatsiyasi;

Sleep trikotaj, velor mato yoki paxtadan ishlab chiqarilgan matolardan tikiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun yengil modellar mavjud - bular bodysuits deyiladi. Bunday kiyimlar yelka qismi ichki maykaga, pastki qismida esa pantiesga o'xshaydi. Sleepini yana bir xususiyati - bu oddiyligi, chunki kam chokli, ortiqcha naqshsiz.

Yangi tug'ilgan chaqaloq kiyimlariga katta yoshlilarga qaraganda ko'proq talab qo'yiladi, chunki chaqaloqlar terisi nozik, ta'sirchan bo'ladi. Faqatgina tabiiy matolardan kiyimlar kiydirish kerak. Masalan: paxta tolali kiyimlar, satin, lyon, jun, flanel.

**Paxta.** Bolalar uchun eng ommabop matolardan biri paxtali matolar. Paxta matosidan kiyim kiyganda tanaga yoqadi, nafas olishni yaxshilaydi va namlikni yutadi. Bazi turlariga sintetikaning kichik foizi qo'shiladi, buning yordamida kiyimning g'jimlanishi kamayadi. Butun dunyoda bolalar kiyimlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar paxta tolasidan to'qilgan gazlamalarni tanlaydilar.



## 2-rasm. Paxta tolali kiyim

**Zig'ir.** Kichkintoylarning ideal kiyimlari uchun yana bir mato desak yanglishmaymiz. Buning qulayligi shundaki qishda tanani isitadi, yozda tanani salqin tutadi. Biroz qattiq bo'lishi mumkin, lekin u juda bardoshli, matoni yanada yumshatish uchun maxsus vositalar qo'llaniladi.

**3-rasm. Zig'ir tolali kiyim**

**Jun.** Jun yaxshi issiqlik izolatsiyasiga ega, ifloslanishi qiyin va undan tayyorlangan narsalar burishmaydi. Jun tolali kiyimlar bolalar tanasini nafas olishini taminlash bilan bir qatorga issiq saqlaydi, gidroskoplik xususiyatiga ega (namlikni o'ziga olmaydi).

**4-rasm. Jun tolali kombinizon****5-rasm. Chaqaloqlar tagligi**

**Flanel.** Juda yumshoq va tabiiy mato. Ko'pincha kichik bolalar uchun tagliklar, chaqaloq nimcha (jaket)lari va boshqa narsalarni tayyorlash uchun ishlatiladi. U paxta yoki jun bo'lishi mumkin. Ko'pincha issiq kiyimlarni tikishda ishlatiladi. Flanel bardoshli, namlikni maksimal darajada yutadi va chiqarib tashlaydi, shuningdek issiqlikni yaxshi saqlaydi.


Bolalar kiyimi mavsumga hamda bolaning yoshiga qarab turli gazlamalardan (batist, paxmoq gazlama, bumazeya, surp va shu kabi mayin gazlamalardan) tikiladi. Bunday gazlamalarning rangi asosan ochiq (ko'p hollarda oq rangda), gullari mayda bo'lgani ma'qul [8].

**Bolalar kiyimlarining sinflanishi**

**1-jadval**

K/k	Guruh	bolaning yoshi	o'lchamlari
1	Yasli yoshidagilar	0.5-2.5	22, 24, 26
2	Bog'cha yoshidagilar	2.5-5.5	28-30
3	Kichik maktab yoshidagilar	5.5-11.5	32-36
4	Katta maktab yoshidagilar	11.5-14	38-42
5	O'smirlar	14-17.5	44-46

Harakatchan va dunyoni o'rganishga o'ta ishtiyoqmand kichkintoylar serharakatligidan kiyimlari yechilib, bellari ochilib bir pasda shamollab qoladi. Ammo, kombinezon kiygan kichkintoy dunyoni bemaol o'rganishi mumkin. Chunki kombinezonlar bolalar uchun eng qulay kiyimdir bunga sabab beli rezinkada siqilmaydi hamda buning natijasida nozik terisi qancha ko'p harakat qilsa ham zararlanmaydi. Siz tikuvchi bo'lmsangiz ham quyiga ma'lumotlardan foydalanib chaqaloqlar uchun kombinizon tikishingiz mumkin.



**6-rasm. Chaqaloqlar kombinizoni va yeng qismini asosiy konstruksiyasi**

A nuqta belgilanadi va shu nuqtadan o'ngga gorizontal va pastga vertikal chiziqlar chiqariladi;

1.  $A \div B =$  Bo'yin yarim aylanasi :3 + 1,2 yoki 3 cm;
2.  $B \div C =$  Yelka kengligi 3;
3.  $C \div D =$  2,5-3 cm;
4.  $C \div E =$  10-13 cm;



E nuqtadan o'ngga va chapga gorizontal chiziq o'tkaziladi. Shu chiziqning A nuqtadan tushgan chiziq bilan tutashgan joyiga F nuqta belgilanadi;

5.  $F \div G = \text{Ko'krak yarim aylanasi} + 2-3\text{cm};$

6.  $A \div H = \text{Go'dakning bo'yi uzunligidan go'dak bo'yining } 1/5 \text{ bo'linib olin tashlanadi}$  Masalan go'dak bo'yi 75 cm bo'ladigan bo'lsa:  $75:5=15$  demak  $75 - 15 = 60 = A \div H;$

7.  $H \div I = 3 \text{ oylikkacha-18 cm,}$

### 1-jadval

N <sup>o</sup>	Chaqaloqlar yoshi	O'lchamlari
1	6 oylikkacha	23 cm
2	9 oylikkacha	28 cm

8.  $H \div J = 6-8 \text{ cm};$

G nuqtadan pastga vertikal chiziq tushuriladi. Pocha chizig'i bilan tutashgan nuqta K nuqta;

9.  $K \div L = 2-4 \text{ cm};$

10.  $A \div C = \text{Yeng uzunligi};$

11.  $A \div B = 7-9 \text{ cm}$  B nuqtadan o'ngga va chapga gorizontal chiziq tortiladi.

12.  $A \div D = 11-13\text{cm}$  bu nuqta B nuqtadan chiqqan chiziq bilan tutashishi kerak;

13.  $A \div E = A \div D;$

14.  $A \div D = \text{kesmani } 3 \text{ ga bo'lamiz va F nuqtani belgilaymiz};$

15.  $A \div E = \text{kesmani } 3 \text{ ga bo'lamiz G va H nuqtalarni belgilaymizmiz};$

16. F nuqtadan 2 cm;

17. G nuqtadan 1 cm. Leykala yordamida A va D nuqtani, A,H va E nuqtalarni tutashtiriladi [6].

Chaqaloqlar kiyimlarini konstruksiyani qurish uchun sizga necha yillik mahorat kerak bo'lmaydi shunchaki ozgina etibor kerak xolos.

**Xulosa.** Chaqaloqlar katta bo'lganlari sari serharakat bo'lib boradilar, ular dunyoni o'rganishni istaydilar. Bolalar o'rmalay boshlaganlarigacha yahtak va raspashonkalar qulay kiyim hisoblanadi, lekin o'rmalay yurib boshlaganlaridan so'ng ust kiyimlari harakatlanishga halal bermasligi, yechilib, bellari ochilib qolmasligi lozim. Shuning uchun kichkintoylarga kombinezonlar ayni muddodir, chunki kombinezonlar bolalar uchun eng qulay kiyimdir bunga sabab bel qismi rezinka bilan siqilmaydi, buning natijasida nozik terisi shikastlanmaydi.

### References:

1. Z.Davlatovna "Tkuv buyumlarini tayyorlash taxnologiyasi" O'quv qo'llanma "Sano standart nashriyot 2017

2. G.K.Xasanbayeva. "Kiyim modelini ishlash va konstruksiyasini tayyorlash" o'quv qo'llanma. Toshkent 1990.

3. Э. К. Амирова и др. Конструирование одежды: Учеб. пособие, М.: Издательский центр «Академия», 2005.

4. Е.М. Гнеушева и др. Конструирование одежды. Конструирование и технология изготовления детской одежды: учебное пособие для вузов / – Орел: ОрелГТУ, 2010.



5. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdam qizi Boltayeva Marjona Talib kizi "Ijodiy manbadan foydalanib kostyum dizayni loyihasini yaratish texnologiyasi" eurasian JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June 2024 ISSN 2181-2020 Page 101-108 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545303>
6. Raximova Kamola G'ayratovna "Issiqni saqlash xossasi yuqori bo'lgan gazlamalardan chaqaloqlar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 page 115-122 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545839>
7. Rakhimova K.G. "Talabalarga imkoniyati cheklangan bolalar kiyimlarini tikish usullarini o'rgatish texnikasi" Eurasian journal of academic research page 142-148
8. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11263298>
9. Rakhimova Kamola Gayratovna "CREATING A RANGE OF MODERN CLOTHES FOR GIRLS" American Journal Of Applied Science And Technology page 13-18 Volume 04 Issue 07-2024 <https://www.theusajournals.com/index.php/ajast/article/view/3340>
10. Тошбеков О., & Мустонова З. Олинган нотўқима матонинг ишқаланишга чидамлилигини ва шовқинни ютишга юқори мослашувчанлик хоссаларини аниқлаш. Евразийский журнал академических исследований, 3(12 Part 2), 2023.217–221.
11. Тошбеков О., Рахимқулова С. Дағал жун толалари асосида олинган (автомобил, авиятсия, кемасозлик) саноати учун қўлланилган нотўқима мато тайёрлаш. Евразийский журнал академических исследований, (2023). 3(12 Part 2), 211–216.
12. Toshbekov, O., Urazov, M., Ermatov, S., & Khamraeva, M. 2023). Efficient and economical energy use technology in the processing of domestic coarse wool fiber. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 461, p. 01068). EDP Sciences.
13. Rakhimova Kamola Gayratovna "CREATING A RANGE OF MODERN CLOTHES FOR GIRLS" American Journal Of Applied Science And Technology page 13-18 Volume 04 Issue 07-2024 <https://www.theusajournals.com/index.php/ajast/article/view/3340>
14. Урозов, М. К., О. А. Тошбеков, and К. Рахимова. "Жунни қалинлигини синовдан ўтказиш усуллари." *Евразийский журнал академических исследований* 2.13 (2022): 784-788.
15. Урозов М.К., Тошбеков О.А., Рахимова К. Жунни қалинлигини синовдан ўтказиш усуллари. Eurasian Journal Of Academic Research. 2022. Vol 2, № 13. P. 784–788; [01.00.00, №51].
16. Тошбеков О., & Мустонова З. Олинган нотўқима матонинг ишқаланишга чидамлилигини ва шовқинни ютишга юқори мослашувчанлик хоссаларини аниқлаш. Евразийский журнал академических исследований, 3(12 Part 2), 2023.217–221.